

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SADIKOVA BAHORA MAXMUROVNA**

**ITALYAN PAREMIOLOGIYASIDA ANTONIMIK KORRELYATSIYALI  
MAQOLLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

UO‘K: 811.131.1:81’373.422

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации на соискание ученой степени  
доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation of Doctor of philosophy (PhD)  
in philological sciences**

**Sadikova Bahora Maxmurovna**

Italian paremiologiyasida antonimik korrelyatsiyali maqollarning semantik  
xususiyatlari..... 3

**Садыкова Бахора Махмуровна**

Семантические особенности антонимически коррелированных пословиц в  
итальянской паремиологии. .... 27

**Sadikova Bahora Maxmurovna**

Semantic features of antonymically correlated proverbs in Italian Paremiology ... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 58

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SADIKOVA BAHORA MAXMUROVNA**

**ITALYAN PAREMIOLOGIYASIDA ANTONIMIK KORRELYATSIYALI  
MAQOLLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Fil1771 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdhti.uz) hamda "ZiyoNyet" Axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan

**Ilmiy rahbar:** **Suvonova Nigorabonu Nizomiddinovna**  
filologiya fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Shamaxmudova Aziza Furkatovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "3" aprel soat 12<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagrin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 238-29-37; faks: (998966) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.ru).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (62858 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagrin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 233-78-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "19" mart kuni tarqatildi.  
(2026-yil "19" mart daqi "18" -raqamli reyestr bayonnomasi)



**N.Z. Nasrullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**U.U. Qo'ldoshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A. Kiselyov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida til hodisalarini kontrast tamoyillar asosida o'rganishga e'tibor ortib bormoqda. Bu jarayon leksikologiya, frazeologiya va paremiologiya kabi sohalarda oppozitiv yondashuvning jadal rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Lisoniy birliklarni qarama-qarshi tushunchalar hamda oppozitiv konseptosferalar nuqtayi nazaridan tadqiq etish bugungi tilshunoslikning ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Paremiologik birliklar semantikasi o'zida murakkab lingvofalsafiy va lingvokognitiv mazmuni jamlagani bois, ularni kontrast tamoyillar asosida tahlil qilish keng ilmiy imkoniyatlar yaratadi. Roman tillari, xususan italyan tili paremiologiyasi esa hozirgacha yetarlicha tadqiq etilmagan bo'lib, ushbu yo'nalishda izlanishlar olib borish dolzarbligicha qolmoqda.

Dunyo tilshunosligida paremiologiyani lingvokognitologiya, lingvopsixologiya, lingvofalsafa va lingvomadaniyatshunoslik bilan uyg'un holda tadqiq etishga e'tibor kuchaymoqda. Bunday integrativ yondashuv lisoniy ong va tafakkurga oid ko'plab kognitiv mexanizmlarning ishlab chiqilishiga, shu bilan birga paremiologiyada oppozitiv tamoyillar doirasining kengayishiga hamda "kontrast paremiologiya"ning shakllanishiga xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, italyan paremiologiyasining hali yetarlicha o'rganilmagan jihatlari mavjud. Jahon va italyan tilshunosligida paremiyalar bo'yicha leksikografik ishlar ko'lami keng bo'lsa-da, ularni monografik va chuqur ilmiy-metodik asosda tadqiq etish hali sust rivojlangan. Bu esa mazkur yo'nalishda yosh tadqiqotchilar uchun keng ilmiy imkoniyatlar va dolzarb vazifalar mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbek tilshunosligida paremiologik birliklarni oppozitiv tamoyillar asosida o'rganish dolzarb bo'lib, bu jarayon ularning til sistemasining quyi sathidan yuqori sathgacha bo'lgan qarama-qarshi mexanizmlarini mukammal tadqiq etishni talab qiladi. Xalq og'zaki ijodining muhim janri bo'lgan maqollar "...bizga insoniyatning naslu nasabi, tarixiy ildizlari, olijanob ideallari bir ekanini, binobarin, turli millat va elat vakillarining kelajak sari intilishlari ham mushtarak ekanini anglatadi<sup>1</sup>. Paremiologiyaning rivoji esa tadqiqotchidan lisoniy birliklarni fonetik mezonlardan tortib, kontekst va diskurs darajasigacha kompleks tahlil qilishni taqozo etadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, shuningdek, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3775-sonli, 2020-yil 11-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4884-sonli, 2021-yil 25-yanvardagi

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи, 06.04.2019.// <https://president.uz/uz/2476>.

“Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo’llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-4963-sonli va 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Maqol va matallarni sof filologik nuqtayi nazardan tadqiq etish XIX-asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Binobarin, o‘sha davrda ko‘plab paremiografik manbalarning yaratilishi ham maqol va matallarning folklor janridagi lisoniy maqomini aniqlash, turli xalqlarga xos etnomadaniy xususiyatlarni namoyon etish, maqollar struktur-semantik xususiyatlarini tahlil qilish kabi masalalar bilan bog‘liq bo‘lgan. Hozirgi kunga kelib esa, paremiologik muammolarni asosan, lingvokognitiv nuqtayi nazardan tadqiq qilish o‘zining ilmiy-nazariy tadqiqotlar orasidagi ustuvorligi bilan ajralib turadi. Agar *paremiologiya* sohasining lingvosemantik aspektiga doir antonimik, ya’ni qarama-qarshi tushunchalar borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar ko‘lamiga e’tibor qaratilsa, tadqiqotchilar oldida hanuz o‘z yechimini kutayotgan muammolar mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Shu o‘rinda quyida *antonimik paremiologiya* doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlarga e’tibor qaratmoqchimiz.

Jahon tilshunosligida amerikalik tilshunos va etnograf K.Yankax xalq maqollaridagi qarama-qarshi ma’nolarning lingvomadaniy xususiyatlari borasida, A.Furnham esa inglizcha antonimik maqollarning real hayotga tadbig‘i to‘g‘risidagi haqiqat va nomutanosiblik borasida o‘z ilmiy qarashlari va fikr-mulohazalarini keltirib o‘tgan. Turkcha maqol va idiomalar o‘rtasidagi antonimik munosabatlarni tadqiq qilgan A.Akchatash hamda antonimiya hodisasiga nisbatan paremiologiya rakursidan nazar solgan D.Geltofan paremiyalarni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilgan. Italyan paremiograflari orasida G.Pitre, P.Toski, T.Franceski, G.Jiakomelli kabi tilshunoslar yaratgan lug‘at va monografik tadqiqotlarda mavzulashtirilgan xalq og‘zaki ijodi namunalari majmui to‘plangan<sup>2</sup>.

---

<sup>2</sup>Yankah K. Do Proverbs Contradict? // Folklore Forum, 1984. – P. 17. / – P.2–19. <https://www.taylorfrancis.com/chapters/edit/10.4324/9781315730523-5/proverbs-contradict-kwesi-yankah>;  
Furnham A. The Proverbial Truth: Contextually Reconciling and the Truthfulness of Antonymous Proverbs. / Journal of Language and Social Psychology, Volume-6, 1987. – P. 49–55. <https://journals.sagepub.com/doi/pdf/10.1177/0261927X8700600103?download=true>; Akçataş A. A study on antonymous relations in Turkish proverbs and idioms. / Turkish Studies – International Periodical For The Languages, Literature and History of Turkish or Turkic. Volume 6/1, 2011. – P. 311–322; Gheltofan D. Paremiological antonymy in Romanian and Russian: theoretical and practical considerations. / Professional Communication and Translation Studies. 2015, Issue No: 8. – P. 71–81. <https://www.ceeol.com/search/article-detail?id=319260>; Pitre G. Biblioteca delle tradizioni popolari siciliane. – Palermo: Pedone Lauriel, 1913. – 300 p.; Toschi P. La letteratura popolare italiana. – Torino: Einaudi, 1949. <https://www.treccani.it/enciclopedia/paolo-toschi>; P.Toschi. Il folklore e il concetto del bene e del male // In: Lares, vol. 25, 1959. – P. 139–162; Giacomelli G.

So'nggi yillarda rus tilshunoslari bu borada yalovbardorlikni qo'lga olgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Holbuki, ular rus antonimik paremiologiyasining qiyosiy aspektlaridagi lingvokognitiv, lingvomadaniy, ideografik, konseptual, struktur-semantik va leksik-semantik masalalari majmuini alohida ilmiy-tadqiqotlar obykti sifatida o'rganib kelmoqda. Jumladan, T.Bochina, L.Vvedenskaya, N.Novikova, Z.Yusupova, E.Borovix, N.Solovyova, N.Saregorodseva va N.Golembovskayalar zamonaviy rus "antonimik paremiologiyasi"ning ilk vakillari sanaladi<sup>3</sup>.

O'zbek tilshunosligida "antonimik paremiologiya" sohasiga doir masalalar alohida ilmiy izlanishlar yoki monografik darajadagi tadqiqotlar orasida deyarli ko'zga ko'rinmaydi. So'nggi paytda U.Umrzoqovning qiyosiy aspektda olib borgan yagona tadqiqoti bunga misol bo'la oladi.<sup>4</sup> Bunday masalalar ayrim tadqiqotlarning faqat tarkibiy qismidagina o'z aksini topgan ilmiy izlanishlarni ham keltirish mumkin. Masalan, B.Jo'rayeva, G.Komilova, R.Madjidova, M.Abduvahobova, D.Tosheva, Sh.Qalandarov, I.Mirzaaliyevlarning ilmiy ishlari shular jumlasidandir<sup>5</sup>. Albatta, tadqiqot mavzusining yuqorida keltirilgan ushbu tavsifi bizni italyan tilidagi antonimik korrelyatsiyali paremiyalarga xos lingvosemantik xususiyatlarni tadqiq qilishga undadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot Samarqand davlat chet tillar institutida o'rganilayotgan "Roman tillarining zamonaviy lingvokognitiv taraqqiyoti" mavzusidagi innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning asosiy maqsadi** italyan tili paremiologiyasidagi antonimik korrelyatsiyali maqollarni lingvosemantik jihatdan tahlil qilish, shuningdek,

---

Proverbi e cultura: Il bene e il male nel linguaggio popolare // In: Rivista di Dialettologia, vol. 5, 1998. <https://accademiadellacrusca.it/ricerca?q=Giacomelli+Gabriella.+Proverbi+e+cultura%3A+II+bene>

<sup>3</sup> Бочина Т.Г. Контраст как лингвокогнитивный принцип русской пословицы: Автореф. дисс. докт... филол. наук. – Казань, 2003. – 52 с.; Введенская Л.А. Словарь антонимов русского языка. – Москва: Астрель АСТ, 2003. – 451 с.; Новикова Н.А. Концептуальная диада "жизнь–смерть" и ее языковое воплощение в русской фразеологии, паремииологии и афористике: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Череповец, 2003. – 24 с.; Юсупова З.А. Языковые аспекты реализации противопоставления в паремии (на материале французских, английских и русских пословиц и поговорок): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Уфа, 2005. – 24 с.; Боровых Е.А. Антонимическая парадигма в русских и английских паремиях: структурно–семантический и культурологический аспекты: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Челябинск, 2007. – 23 с.; Соловьева Н.В. Лексические и фразеологические неологизмы, вступающие в отношения противоположности: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Москва, 2007. – 30 с. <https://www.dissercat.com>; Царегородцева Н.В. Антонимические корреляции в идеографическом аспекте (на материале английских паремий): Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2013. – 24 с.; Голембовская Н.Г. Лингокультурные антинормы в русских и литовских паремиях: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Волгоград, 2014. – 26 с.

<sup>4</sup> Umiqzakov U. Fransuz va o'zbek maqollarida kontrastning xususiyatlari: Filol. fan. fals.dokt.(PhD) ... diss.avtoref. – Samarqand, 2025. – 56 b.

<sup>5</sup> Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари. – Тошкент: Akadenuashr, 2019. – 188 б.; Комилова Р.Г. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили: Филол.фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 50 б.; Маджидова Р.У. Антропоцентрик мақолларнинг аксиологик тадқиқи (Ўзбек ва рус тиллари материаллари асосида): Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2020. – 50 б.; Абдуваҳובהва М. Гендернинг паремииологик вербаллашуви // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2013. – Б.74-86; Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. фалс. докт. (Phd)... дисс. автореф. – Т., 2017. – 52 б.; Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси: Филол. фан. фалс. докт. (Phd)... дисс. – Ф., 2019. – 134 б.; Мирзаалиев И.М. Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси ("Девону лугати–турк" материали мисолида): Филол. фан. фалс. докт.(Phd) ... дисс. автореф. – Т., 2020. – 54 б.

antonimik komponentli paremiyalarning mantiqiy-semantik va mikro-konseptual xususiyatlari asosida ularning lingvosemantik hamda lingvokognitiv tabiatini aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

*antonimik paremiologiya* va undagi korrelyatsiyaning nazariy asoslarini maqollarga xos mantiqiy-semantik kategoriya sifatidagi *antonimiya hodisasi* orqali tavsiflash va uning oppozitiv tamoyillarini hosil qiluvchi mezonlarni aniqlash;

zid komponentli maqollarning “*ziddiyat va muvozanat*” rakursidagi mantiqiy-semantik tavsifini ifodalash va ularni tilning sistem-sath nuqtayi nazaridan integratsiyalashgan tarzda tasniflashning asosiy omillarini namoyon etish;

italyancha zid komponentli maqollarda aks etgan ijtimoiy, lingvosemantik va milliy-madaniy xususiyatlarni sistem-sath nuqtayi nazaridan tahlil qilish va paremiyalarning *ijtimoiy fenomen* ekanligini asoslash;

antonimik korrelyatsiyali *Uomo* va *Donna*, *Bene* va *Male*, *Vita* va *Morte* komponentli maqollarda ifodalangan ijtimoiy-falsafiy va milliy-madaniy qarashlarni mikro konseptual jihatdan tahlil qilish va shu orqali italyan tili antonimik paremiologiyasining lingvokognitiv xususiyatlarini aniqlash va izohlash.

**Tadqiqotning obykti** sifatida italyanча paremiografik manbalar asosida to‘plangan 750 ta antonimik korrelyatsiyali paremiyalar tanlab olindi.

**Tadqiqotning predmetini** paremiografik manbalarda mavjud antonimik korrelyatsiyali maqollarning lingvosemantik va lingvokognitiv jihatlari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Italyan tilidagi antonimik korrelyatsiyali maqollarni tadqiq qilishda tasviriy, tavsifiy, statistik, paradigmatic va mikrokonseptual tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

*antonimik paremiologiya* sohasining *korrelyatsiya* hodisasi bilan uzviy bog‘liqligi, ularga xos oppozitiv tamoyillarni hosil qiluvchi belgilar zidligi, binar oppozitsiya, bir-birisiz mavjud bo‘lmashlik, bir-birini inkor etish va antonimik korrelyativlik singari mantiqiy-semantik ko‘rsatkichlar mavjudligi asoslangan;

zid komponentli paremiyalarni “*ziddiyat va muvozanat*” rakursi, “*ziddiyat*”ning qarama-qarshi ma‘nolar bilan, “*muvozanat*”ning esa zid ma‘nolarga xos semantik umumiylik bilan aloqadorligi ochib berilgan va bunday yondashuv antonimik maqollarni til sathlariaro, kognitiv, paradigmatic va struktur-semantik jihatdan tasniflashning asosiy omili ekanligi isbotlangan;

italyanча antonimik komponentli maqollarda aks etgan ijtimoiy va lingvosemantik xususiyatlarning grammatik va milliy-madaniy jihatlari ularga xos yashirin mantiqiy-semantik ma‘noni ifodalashga xizmat qilishi hamda paremiyalarning hayotiy-situativ omillarga asoslangan *ijtimoiy fenomen* ekanligi dalillangan;

*uomo* va *donna* komponentli maqollarga xos genderli etnomadaniy stereotiplar, *bene* va *male* komponentli maqollarga xos kontrast paremiologik obrazlar, *vita* va *morte* komponentli maqollarga xos ijtimoiy-falsafiy qarashlar ustuvorligi antonimik paremiologiyaning mikro konseptual tamoyillari orqali

italyan tili antonimik paremiologiyasining semantik va lingvokognitiv xususiyatlari ochib berilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari:**

Italyan tilidagi antonimik korrelyatsiyali maqollarni semantik va kognitiv jihatdan o'rganish natijasida oppozitiv tamoyillar asosidagi italyan xalqiga xos etnomadaniy, lingvosemantik va ijtimoiy-falsafiy qarashlarning *paremiologiya* sohasiga nisbatan o'ziga xosligi aniqlangan.

Shuningdek, lug'atshunoslik bo'yicha *semantik paremiologiya*, xususan, *antonimik paremiologiya* sohasiga doir italyancha maqol va matallar lug'atini yaratishning leksik jihatdan fundamental asosi yaratildi. Tadqiqot natijalari oliy ta'limning bakalavr va magistr talabalari uchun *leksikologiya*, *frazeologiya*, *paremiologiya*, *kognitologiya* kabi sohalar doirasida maxsus tanlov fanlarni o'qitish bo'yicha uslubiy ta'minot sifatida xizmat qildi. Dissertatsiya ishida bir qancha sohalar, xususan, *tilshunoslik*, *falsafa*, *psixologiya* va *sostiologiya* fanlari bo'yicha mutaxassislar ham foydalanishi mumkin bo'lgan ko'plab amaliy materiallar keltirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ilmiy-tadqiqot ishida muammoning aniq tarzda yoritilganligi, mavjud xulosalarning qat'iyligi, ilmiy-nazariy va amaliy ma'lumotlarning ishonchli manbalardan olinganligi, aniq va ishga mos lisoniy usullardan foydalangan holda tahlil qilinganligi, misollarning ishonchli paremiografik manbalardan yig'ilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlardan olingan natijalarning o'zaro muvofiqligi bilan izohlanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati 1) italyan tilidagi *paremiologik kontrast* hodisasining zamonaviy lisoniy tendensiyalarga asoslangan holda turli xil lingvistik rakurslar nuqtayi nazaridan talqin qilinishi; 2) paremiologik birliklarga nisbatan mantiqiy-semantik yondashuvga xos *konseptual*, *kognitiv* hamda *lingvomadaniy* tamoyillar mavjudligining tasdiqlanishi; 3) *lisoniy korrelyatsiya* hodisasini *oppozitsiya* tamoyillari orqali til birliklarini tadqiq etishga xos tahlil metodlaridan biri, ya'ni *korrelyatsion metod* sifatida qo'llanishining asoslanishi orqali belgilanadi. Bunday ilmiy-nazariy yondashuv tildagi *ziddiyat* kategoriyasining *lingvosemantik*, *kognitiv* va *konseptual* xususiyatlarini paremiyalar asosida tadqiq qilish nazariyasini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olingan xulosalardan *paremiologiya*, *paremiografiya*, *frazeologiya*, *frazeografiya*, *kognitiv tilshunoslik*, *tarjima nazariyasi* va *amaliyoti* kabi sohalariga doir o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratishda, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi yozishda hamda magistrlik, PhD va doktorlik dissertatsiyalarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

#### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Italyan paremiologiyasida antonimik korrelyatsiyali maqollarning semantik xususiyatlari mavzusidan chiqarilgan ilmiy natijalar asosida:

antonimik paremiologiya o'zining oppozitiv xususiyatlari orqali lisoniy korrelyatsiya bilan uzviy bog'liqligi hamda ularga xos oppozitiv tamoyillarni hosil qiluvchi belgilar zidligi, binar oppozitsiya, bir-birisiz mavjud bo'lmaslik, bir-birini inkor etish va antonimik korrelyativlik singari mantiqiy-semantik mezonlar

mavjudligi haqidagi ilmiy xulosalardan 2021-2023- yillarda “Musiqqa va san’at o’quv muassasalari uchun “Bolalar raqslari” fanidan interaktiv o’quv-metodik qo’llanmalar yaratish” mavzusidagi F3 -2019081773-raqamli fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (*O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2025-yil, 07.05.dagi № 1/04-230 - raqamli ma’lumotnomasi*). Natijada, loyiha doirasida amalga oshirilgan “O‘zbek bolalar raqslari, raqs liboslari va taqinchoqlari nomlarining o‘zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha qisqacha izohli lug‘ati”ni yaratishda antonimik korrelyatsiyali maqollarni semantik va kognitiv jihatdan o‘rganish jarayonida aniqlashtirilgan etnomadaniy, lingvosemantik va ijtimoiy-falsafiy tushunchalar mazkur lug‘atning kirish qismidagi izohli tushuntirishlarni to‘ldirishga yordam qilgan;

zid komponentli paremiyalarni “ziddiyat va muvozanat” rakursi, “ziddiyat”ning maqollar ichki sistemasidagi qarama-qarshi ma’nolar bilan aloqadorligini, “muvozanat”ning esa zid ma’nolarning semantik jihatdan umumiylikni isbotlovchi xulosalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 19-may kuni e’firoga uzatilgan “Assalom, Samarqand!” dasturi ssenariysida foydalanilgan (*Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 29-maydagi №01-07/199-sonli ma’lumotnomasi*). Natijada, jonli muloqotda dissertant tomonidan Samarqand davlat chet tillar institutida italyan tili mutaxassislarini tayyorlash jarayonida olib borilayotgan islohotlar hamda mazkur dissertatsiyaning italyan tili doirasida erishilgan ilmiy natijalari yuzasidan intervyu berilgan;

italyancha zid komponentli maqollarda aks etgan ijtimoiy va lingvosemantik xususiyatlarning grammatik va milliy-madaniy jihatlari ularga xos yashirin mantiqiy-semantik ma’noni ifodalashga xizmat qilishi hamda paremiyalarning hayotiy-situativ omillarga asoslangan ijtimoiy fenomen ekanligiga doir xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020- yillarda bajarilgan FA-F-1-005 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq qilish” nomli fundamental ilmiy tadqiqot loyhasini amalga oshirishda foydalanilgan (*Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2025-yil, 14.05.dagi №283\2 – raqamli ma’lumotnomasi*). Natijada, dissertatsiya tadqiqotlaridagi tushuntirish hamda xulosalar loyiha doirasidagi folklor asarlaridan olingan 30 dan ortiq paremiyalarni izohlashga, lug‘atdagi leksikografik tahlillarni takomillashtirishga, so‘z ma’nolarini oydinlashtirishga xizmat qilgan;

*uomo* va *donna*, *bene* va *male*, *vita* va *morte* komponentli antonimik korrelyatsiyali maqollarda aks etgan gender asosli etnomadaniy stereotiplar, kontrast paremiologik obrazlar va oppozitiv ijtimoiy-falsafiy qarashlarni mikro konseptual tamoyillar asosida ochib berish orqali hosil bo‘lgan ilmiy natija va xulosalardan 2022-2023- yillarda “O‘zbek milliy raqs san’atini targ‘ib etishga bag‘ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari (elektron lug‘atlar) to‘plami yaratish” mavzusidagi F3-2019081663 raqamli fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (*O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2025-yil, 07.05.dagi № 1/04-231 - raqamli ma’lumotnomasi*). Natijada, loyiha doirasida amalga oshirilgan “O‘zbek folklor san’ati terminlarining qisqacha o‘zbekcha-

inglizcha-nemischa izohli lug‘ati”ni yaratishda folklor asarlaridagi qahramonlar obrazi orqali tarannum etilgan binar oppozitsiyali stereotiplar folklor san‘ati terminlarining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini kontrast tarzda izohlash masalasida muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishda tavsiya etilgan milliy nashrlarda 5 ta maqola, xorijiy jurnallarda 5 ta maqola e‘lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, boblar bo‘yicha xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 138 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti va materiali aniqlangan; tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, natijalar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning 1-bobi “**Antonimik paremiologiya va unga xos korrelyatsiyaning nazariy asoslari**” deb nomlanib, 4 bo‘limni o‘z ichiga olgan holda maqolning tilshunoslar talqinidagi lisoniy maqomi va unga xos antonimiya hodisasining mantiqiy-semantik mohiyati hamda korrelyatsiyaning paremiologik kontrast mexanizmida tutgan o‘rni ochib berilgan. Bobning 1-bo‘limi “*Maqol va uning lisoniy maqomi tilshunoslar talqinida*” sarlavhasi ostida maqolning tilshunoslar tomonidan berilgan tavsiflari o‘rganilgan. Xususan, italyan xalqiga tegishli qadimgi manbalardagi maqollarga berilgan ta‘rifga etibor qilinsa, maqollar kundalik turmush muammolari, quvonch va tashvishlari, shuningdek, ijtimoiy jamiyat qonun qoidalarini sarhadlararo mushohada etuvchi “inson hayotining ko‘zgusi” sifatida talqin qilinadi<sup>6</sup>. Darhaqiqat, yozuvchi, tilshunos, folklorshunos olim Carlo Lapucci o‘zining “Dizionario dei proverbi italiani” kitobida maqolning bayon qilinish strukturasi ko‘ra 1) jamoa xotirasida saqlangan yoki yozma shaklda yetib kelgan, 2) ko‘p yillik tajribaga asoslangan, 3) dalillarni tasdiqlash, bashoratlarni mustahkamlashda foydalaniladigan, 4) hayotning ma‘lum bir tartib-qoidasi tariqasida yoki ogohlantirish sifatida taqdim etilgan, 5) og‘zaki yoki yozma shakldagi qisqa jumla sifatida talqin qilingan<sup>7</sup>.

<sup>6</sup>Polívková I. Specchio della vita umana, traduzione dell'autore. Jazyková struktura italských přísloví, Filozofická fakulta, Ústav románských studií, – Praha, 1998. – P. 3. / – 158 p.

<sup>7</sup>Lapucci.C. Dizionario dei proverbi italiani. Milano: Mondadori DOC, 2007. – LXIII, 1854 p.

Francheschi maqolni *aniq (esplicito)* va *yashirin (implicito)* kabi turlarga ajratadi<sup>8</sup>. Maqollarning implitsit shakli (vositali yoki majoziy shakli) eng ko'p uchraydigan turi bo'lib, uning maqollik maqomini ko'rsatuvchi asosiy qiymati ham aynan *yashirin - implitsit* mazmunga egaligidir. Masalan, *La gallina che sta nel pollaio, è segno che vuol bene al gallo*-Tovuqning katakda qolishi xo'rozni sevishidan dalolatdir maqolida allegorik implikasiya aks etgan. Eksplitsit, ya'ni aniq shakldagi maqollar o'zlaridagi ibratli mazmundorligi orqali paremiologik qiymatni yanada oshiradi. Masalan, *Tra l'odio e l'amore il passo è breve - Muhabbat va nafrat o'rtasidagi masofa bir qadamdir*. Ushbu o'rinda paremiologik birliklar uchun muhim bo'lgan belgilar yaqqol ko'zga tashlanadi, ya'ni birinchidan, maqol shunchaki so'zlar tizmasi bo'lmasdan, balki chuqur kuzatuvchanlik asosida vujudga kelgan fikrlarning xulosasi bo'lishi, ikkinchidan, bu xulosa jamoatchilik tomonidan tasdiqlanishi, uchinchidan, yuqoridagi ikki shartga javob beruvchi hikmatli fikr ixcham, mukammal, badiiy jihatdan puxta tuzilgan shaklga ega bo'lishi lozim.

Maqolni boshqa paremiologik birliklardan farqlash jarayonida G.L.Permiyakov qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, olim maqolni mataldan farqlashda uning mazmunida aks etgan ochiq va yopiq semantik xususiyatni ajratib ko'rsatadi<sup>9</sup>. Ya'ni, tilshunos maqol mazmunida hikmat yashirin tarzda aks etsa, matalda esa aksincha, ochiq tarzda ifodalanishini inobatga oladi. B.Jo'rayeva o'z monografiyasida maqol va matalni o'zaro farqlashga harakat qiladi, ya'ni u matal axborot berish, maqol esa shu axborotni dalillash, isbotlash, xulosalash vositasi ekan, ularning har ikkisi ham yonma-yon qo'llanishi mumkinligini, bunday hodisa tilda maqol-matal tipidagi paremalarning yaratilishi uchun asos bo'lishini ta'kidlaydi.<sup>10</sup> Maqollarni boshqa paremiologik birliklardan, xususan, matallardan o'zaro farqlash masalasi bo'yicha tilshunoslarning qarashlari o'rtasida yakdillik mavjud emasligi hamda ularning boshqa paremiologik birliklar bilan o'xshash jihatlari bisyorligi ushbu muammoni alohida tadqiqot obyekti sifatida tadqiq qilish lozimligini tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bo'limi "*Antonimiya – mantiqiy-semantik kategoriya sifatida*" deb nomlangan holda unda antonimiya hodisasining bizni o'rab turgan obyektiv olam manzarasidagi aksi ifodalangan. Ya'ni leksik birliklarning semantik tadqiqidan mustahkam o'rin egallagan oppozitsiya tushunchasi tilning barcha sathlarida birdek qo'llaniladi. F.Sossyur til tizimining gnoseologik dixotomiyasidan kelib chiqqan holda oppositsion munosabatlarni tildagi ko'p qirrali belgilar majmui sifatida baholaydi, uning og'zaki nutqda faollashuvi orqali ifodalovchi va ifodalanmish, paradigmatika va sintagmatika, sinxroniya va diaxroniyaga bog'liq tarzda talqin qiladi<sup>11</sup>. Shu boisdan antonimiya

<sup>8</sup> Franceschi T. Il proverbio e l'API, AGI 63, 1978, p. 115 ss. Cfr. inoltre del medesimo, l'introduzione all'Atlante Paremiologico Italiano, Urbino 1982.

<sup>9</sup> Пермяков Г.Л. К вопросу о структуре паремнологического фонда // Типологические исследования по фольклору: Сб. ст. – Москва, 1975 – С.55.

<sup>10</sup> Жураева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари – Тошкент: Академнашр, 2019. – Б. 27.

<sup>11</sup> Кузнецов В.Г. Развитие дихотомий Ф. де Соссюра в Женевской лингвистической школе // Фердинанд де Соссюр и современное гуманитарное знание. Сб. науч.ст. – М., 2008. – С.67. / – С.66–83. <https://cyberleninka.ru/article/>

hodisasi tilning leksik-semantik sathidagi asosiy til universalialaridan biri sifatida va tildagi qarama-qarshi kategoriyalarni aks ettiruvchi eng muhim vosita sifatida olib qaraladi. Uning bu jihatlariga tilshunoslar nuqtayi nazaridan e'tibor qaratilsa, uning mantiqiy-semantik mezonlari tarkibi umumiy tarzda quyidagicha ekanligi ko'zga tashlanadi:

### 1-jadval

#### Antonimlarning mantiqiy-semantik mezonlari tarkibi

Antonimlarning <i>mantiqiy</i> mezonlari tarkibi:	Antonimlarning <i>semantik</i> mezonlari tarkibi:
<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ inkor kategoriyasi;</li> <li>✓ qarama-qarshi tomonlar mavjudligi;</li> <li>✓ belgilar zidligi;</li> <li>✓ qarama-qarshi xarakterli ma'nolar;</li> <li>✓ binar oppozitsiya;</li> <li>✓ graduallik;</li> <li>✓ assimetrik qarama-qarshi ma'nolar;</li> <li>✓ bir-birini taqozo qiladigan ikki xil obyektlar;</li> <li>✓ ikki qarama-qarshi tomonning mavjudligi;</li> <li>✓ bir-birisiz mavjud bo'lmashlik;</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ qarama-qarshi tushuncha va ma'nolar;</li> <li>✓ semantik umumiylik;</li> <li>✓ belgilarga xos differensiallik;</li> <li>✓ antonimik korrelyativlik;</li> <li>✓ so'z turkumlari bir xilligi;</li> <li>✓ umumsemantik maydon;</li> <li>✓ semantik nomuvofiqlik;</li> <li>✓ struktur differensiallik;</li> <li>✓ leksik-semantik jihatdan zid munosabatlar;</li> </ul>

Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan zid tushunchalarning o'zaro bog'liqligini va bir-birisiz mavjud bo'lmashligini inobatga olgan holda tilda ma'lum bir tushuncha paydo bo'lsa, albatta, unga qarama-qarshi tushuncha ham paydo bo'ladi. Zero, yozuvchi V.V.Yurchuk ta'biri bilan aytganda, "... hech narsa hech qachon butunlay yolg'iz mavjud bo'lmaydi, balki, biri ikkinchisiga bog'liq tarzda paydo bo'ladi".<sup>12</sup> Binobarin, lug'aviy jihatdan mantiqiy qatorning ikki qarama-qarshi tomoni tariqasida mavjudlik va yo'qlik tushunchalari bor ekan, ular o'rtasida inkor kategoriyasi ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Demak, antonimiya bir-birini inkor etuvchi va biri - birisiz mavjud bo'lmaydigan leksik – semantik kategoriya sifatida olib qaralishi maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda antonimlarni aniqlashning bunday ta'riflarini tahliliy tarzda o'rganish orqali oppozitivlikka asoslangan antonimiya hodisasidan zamonaviy tilshunoslik tendensiyalariga ko'ra kognitiv, pragmatik va boshqa birliklarga nisbatan to'g'ri foydalana olish imkoniyatlarini yanada yorqinroq aniqlashtirishga yordam beradi, degan xulosaviy fikrni keltirish joiz.

Bobning uchinchi bo'limida "*Lisoniy korrelyasiya va uning oppozitiv tamoyillari*" xususidagi fikrlar tahlil qilinadi va uning ilmiy-nazariy qarashlar asosidagi bog'liqlik, oppozitsiya, statistika, muvofiqlik va tafovvut (differensiallik) tamoyillari tavsiflanadi. *Korrelyatsiya* nazariyasi tilshunoslik sohasida ilk bor N.S.Trubestkoy tomonidan fonologiya faniga nisbatan tatbiq etilgan, shundan so'ng korrelyatsiya tushunchasi boshqa qator lisoniy hodisalarga nisbatan tatbiq qilingan. Ushbu hodisa nafaqat fonologiya, balki tilning boshqa sathlari doirasida ham, xususan, leksik, semantik, grammatik, pragmatik, kognitiv va lingvomadaniy

<sup>12</sup> Юрчук В.В. Будда. Жизнь. Учение. Мысли, изречения, афоризмы. – Москва: Современное слово, 1998. – С. 285. / – 320 с.

korrelyatsiya singari bir qator tilshunoslik obyektlarini ham qamrab olishi mumkin. Korrelyatsiya atamasiga berilgan izohlarning ayrimlarida to'g'ridan-to'g'ri oppozitiv munosabatlarga ishora qilinganligining guvohi bo'lish mumkin, ya'ni tilshunoslik fani nuqtayi nazaridan berilgan aksariyat ta'riflarda korrelyatsiya va oppozitsiya ajralmas, bir-birini taqozo etuvchi hodisalar sifatida talqin qilinadi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bo'limi "*Paremiologik kontrast mexanizmining tasnifiy xususiyatlari*" ning lisoniy talqiniga asoslanadi. Unda *kontrast* tushunchasi paremiologiya sohasida maqollarning universal tamoyili sifatida olib qaraladi. Binobarin, G.L.Permyakov ta'biri bilan aytganda har qanday maqolning asl mazmunini u yoki bu so'z emas, fikr emas, ijtimoiy soha ham emas, balki qarama-qarshi mohiyatga ega bo'lgan invariant juftliklar tashkil etadi<sup>13</sup>. Shunday ekan, maqollar matnida kontrast tamoyillar o'ziga xos ahamiyatga ega. Negaki, maqol va matallarning denotativ va signifikativ semantikasi hamda ichki hamda tashqi sistemasi bilan bog'liq *binar oppozitsiya* ularning sof struktur tamoyili sifatida xizmat qiladi.

*Paremiologik kontrast* hodisasining aynan italyan tili misolida o'rganish dastlab ushbu hodisaning tilshunoslar tomonidan talqin qilingan lisoniy mexanizmiga e'tibor qaratishni taqozo qiladi. Shunday ekan, maqol va matallarga xos kontrastiv tushunchalarni namoyon etuvchi asosiy omillar nimalardan iborat ekanligi borasidagi qarashlar aynan italyan paremiologiyasi doirasida lingvistik jihatdan universal bo'lgan yangicha tamoyillarni yaratish imkonini beradi. Shu boisdan mazkur bo'limda *kontrast paremiologiya* sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlarni tahlil qilgan holda italyancha maqollarning kontrastiv mexanizmini hosil qiluvchi tasnifiy tamoyillarga alohida e'tibor qaratilgan. Tahlil davomida kontrast mexanizmining E.N.Miller nazariyasi bilan bog'liq so'z turkumlari antonimiya<sup>14</sup>, S.Arutyunyan nazariyasiga bog'liq paremiyalarning semantik va milliy-madaniy aspektlari antonimiyasi<sup>15</sup>, I.Kant nazariyasiga asoslangan mantiqiy-falsafiy qarash zamiridagi antinomiyalar<sup>16</sup>, L.G.Babenko qarashlariga asoslangan paremiyalarga xos semantik maydonning antonimik yadro va periferiyasi<sup>17</sup> doirasidagi tasnifiy turlari o'rganilgan.

Zamonaviy lingvistik tendensiyalar va ilg'or tadqiqotlar asosida, italyan tilidagi paremiologik kontrast hodisasi til sathlariaro, kognitologik, konseptual va lingvomadaniy yondashuvlar bilan o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. Muammoga nisbatan bunday qarash tadqiqotimiz obyekti bo'lgan italyancha AKM<sup>18</sup>larga xos *paremiologik kontrast* hodisasining tasnifiy mezonlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning "**Antonimik korrelyatsiyali maqollarning til sathlariaro lingvosemantik talqini**" deb nomlangan ikkinchi bobi 4 bo'limdan iborat. Unda

<sup>13</sup> Пермяков Г.Л. Основы структурной паремииологии. – Москва: Наука, 1988. – С. 107. / – 236 с.

<sup>14</sup> Миллер Е.Н. Природа лексической и фразеологической антонимии. – Саратов: Изд-во Саратовского ун-та, 1990. – 211 с.

<sup>15</sup> Арутюнян С.М. Нация и ее психический склад. – Краснодар: Изд-во Краснодар. гос. Ун-та, 1966. – 271 с.

<sup>16</sup> Кант И. Антропология с прагматической точки зрения. Соч. в 6-ти т. – Москва: Мысль, 1966. – 744 с.

<sup>17</sup> Бабенко Л.Г. Предисловие // Словарь-тезаурус синонимов русской речи / Под общ.ред. Л.Г.Бабенко. – Москва: АСТ-Пресс Книга, 2007. – 512 с.

<sup>18</sup> Keyingi o'rinlarda antonimik korrelyatsiyali maqollar AKM qisqartmasi tarzida beriladi.

zid komponentli maqollarning mantiqiy-semantik tavsifi va ularni tilning sistem-sath nuqtayi nazaridan integrasiyalashgan tarzda tasniflashning asosiy omillari namoyon etilgan. Ularda aks etgan ijtimoiy, lingvosemantik va milliy-madaniy xususiyatlar sistem-sath nuqtayi nazaridan tahlil qilingan va paremiyalarning *ijtimoiy fenomen* ekanligi isbotlangan.

“*Italyan tilidagi zid komponentli maqollarning “ziddiyat va muvozanat” rakursidagi mantiqiy-semantik ifodasi*” deb nomlangan birinchi bo‘limida ziddiyat va muvozanat kategoriyalarining antonimiya va korrelyatsiya hodisalarini mantiqiy-semantik jihatdan isbotlashdagi ahamiyati tavsiflangan. Ziddiyat yoki qarama-qarshi tushunchalarni ifodalovchi bir nechta lisoniy atamalar tilshunoslar tomonidan keng tarzda qo‘llanib kelinadi. Masalan, antonimiya, antinomiya, kontrast kabilar shular jumlasidandir. Ularni quyida italyan paremiologiyasi misolida shunday tavsiflash mumkin: *antonimiya* - bir vaqtning o‘zida bir-birini inkor etuvchi va biri-birisiz mavjud bo‘lmaydigan leksik – semantik kategoriya sanaladi: *Chi nasce, conviene che muoia*; *antinomiya* - falsafiy tushuncha bo‘lib, u ikki xil qonun, nizom, tamoyil va kategoriyalar o‘rtasidagi qarama-qarshi ma’nolar (*donolik - ahmoqlik, do‘stlik - dushmanlik* va boshqalar) hisoblanadi: *Buone parole e cattivi fatti, ingannano savi e matti*; *kontrast* esa – ikki xildagi obyekt o‘rtasida mavjud farqning yaqqol, ya’ni bir qarashdanoq ko‘zga tashlanishi. Masalan, *oq* va *qora* rangdagi ko‘ylak birga turganda tezda ko‘zga tashlanadigan farq yoki *katta* va *kichik* hajm o‘rtasidagi keskin farqdir: *Il bianco e il nero han fatta ricca Vinegia*.

Ziddiyat ma’nosiga asoslangan ushbu terminlar bejizga tavsiflanmadi. Chunki, italyancha paremiyalar tarkibidagi antonimik birliklar majmuini aynan ushbu 3 xil rakurs doirasida tahlil qilish mumkin. Masalan, *vita e morte* (*hayot va mamot*), *amore e odio* (*muhabbat va nafrat*), *saggezza e stupidità* (*donolik va ahmoqlik*), *bene e male* (*yaxshilik va yomonlik*) singari bir qator antonimik tushunchalar o‘ziga xos ziddiyat mezonlariga ega. Xususan, *hayot va mamot* ma’nosidagi *vita va morte* tushunchalari sof *antonimiya* hisoblanadi. Chunki, *hayot* bir vaqtning o‘zida *o‘limni* inkor etuvchi va *o‘limsiz* mavjud bo‘lmaydigan ijtimoiy-falsafiy va leksik-semantik kategoriyadir. Haqiqatdan ham, *hayot* borki, *o‘lim* muqarrardir. Shu bois bu kabi antonim birliklarni *kategorial antonimlar* sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Biroq, ziddiyatga asoslangan boshqa *amore e odio* (*muhabbat va nafrat*), *saggezza e stupidità* (*donolik va ahmoqlik*) kabi tushunchalar ham mavjud bo‘lib, ularni mutlaq, ya’ni *kategorial antonimlar* sirasiga qo‘shish to‘liq o‘zini oqlamaydi. Chunki, hayotda “*muhabbat*” “*nafrat*”siz ham bo‘lishi mumkin yoki “*yomonlik*” bo‘lmasa ham “*yaxshilik*” hukmron bo‘laveradi. Ya’ni, ular biri-birisiz mavjud bo‘la oladi. Agar xuddi shu tushunchalar *antinomiya* rakursida talqin qilinsa, ular falsafiy tushunchalar sifatida qarama-qarshi ma’nolar hisoblangan holda ehtiyoj nuqtayi nazaridan bir-birini taqozo qilmaydi. Negaki, antinomiya zamirida bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan falsafiy tushunchalar yotadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, italyan maqollarining aksariyatida antinomiya, ya’ni qarama-qarshi tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlar ifodalangan bo‘lib, ular xalqning hayotiy tajribalari va qadriyatlarini umumlashtirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Italyan maqollarining

antonimiya va korrelyatsiyaga asoslanganligi ularning lisoniy qiymatini oshirish bilan bir qatorda, paremiologiya fani oldida turgan dolzarb masalalar yechimiga ham sabab bo'luvchi omillardan biri sanaladi.


“Antonimik korrelyatsiyali maqollarning sistem-sath nuqtayi nazaridan integrasiyalashuvi” nomli ikkinchi bo'limida italyancha AKMlarni til sathlari doirasida tasniflash tamoyillari o'rganilgan. Italyancha AKMlarga xos paremiologik kontrast hodisasining tasnifiy mezonlarini ishlab chiqishda ularning turli rakurslardagi, ya'ni 1) til sathlariaro, 2) kognitiv, 3) paradigmatic va 4) struktur-semantik xususiyatlarini inobatga olish lozim.

1. Italyancha AKMlar til sathlari nuqtayi nazaridan tasniflanganda ularning quyidagicha turlari mavjudligi ko'zga tashlanadi: **a) fonetik sathda** turli xil ma'nolarni ifodalovchi parafonli antonimli maqollar: *Di giorno tingi, e di notte finigi*; **b) leksik sathda** turli xil assotsiativ qarama-qarshiliklar, jumladan, qofiyali leksemali maqollar: *Spagna magra, Francia grassa, Germania la passa*; **c) semantik sathda** semantik jihatdan nomuvofiq bo'lgan antonimlar: *Chi ha bevuto tutto il mare, ne può bere una scodella*; - kombinatsiyalashgan oppozitsiyali antonimlar: *Chi non sa mentire, crede che tutti dicano il vero*; -konversiv antonimlar: *Chi ha mangiato la carne, deve goderne gli ossi* va hokazo; **d) grammatik sathda** grammatik oppozitsiyali: *Facciami ben, facciami mal, in cent'anni saremo equal*; - fe'llarning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari: *Non fa male il bere: fa male il ribere*; - grammatik assimetrik antonimlar: *Chi di speranza vive, disperato muore* kiradi.

2. Italyancha AKMlar kognitiv nuqtayi nazardan tasniflanganda ularning quyidagicha turlari mavjudligi namoyon bo'ladi. **a) falsafiy kategoriyalar**: - makon (*La donna sa dove nasce e non sa dove muore*); - zamon (*E quando son maritate han sette lingue e una mano sola*); - miqdor (*Quanto più s'ama, meno si conosce*); - xususiyat (*Dolce vivanda vuol salsa acerba*); **b) madaniy aspektlar**: - hayot (*Chi di speranza vive, disperato muore*); - iqtisodiyot (*Il povero mantiene il ricco*); - siyosat (*Legge fiorentina, fatta la sera e guasta la mattina*); **c) oppozitiv konseptlar**: - hayot va mamot (*La vita cerca la morte*); -urush va tinchlik (*Chi fa buona guerra, ha buona pace*); - do'st va dushman (*Chi non sa fingersi amico, non sa essere nemico*).

3. Italyancha AKMlar paradigmatic xususiyatlar nuqtayi nazardan tasniflanganda: - sifat (*Al ricco non promettere, al povero non gli mancare*); - ot (*Angelo nella giovanezza, diavolo nella vecchiezza*); - fe'l (*Altro è promettere, altro è mantenere*) va boshqa so'z turkumlari qo'llanilgani kuzatiladi.

Tadqiqot uchun asosiy material sifatida tahlil qilingan italyancha AKMlar asosan, ularning ichki tarkibiy tuzilishidan kelib chiqqan holda tanlab olinishi maqsadga muvofiq sanaladi. Zero, ularning aynan ichki strukturasiidagi bir-biriga qarama-qarshi ma'noli leksik komponentlarning mavjudligi esa ularni tadqiqotimiz obyektini sifatida “antonimik korrelyatsiyali” maqollar deb, alohida o'rganilishi har tomonlama o'zini oqlaydi. Masalan, o'rganilgan 750 ta italyancha AKMlarning morfologik tarkibi va ularning miqdoriy ko'rsatkichlari quyidagicha ekanligi ko'zga tashlanadi:



1-rasm. AKMlarning miqdoriy ko'rsatkichi

4. Italyanacha AKMlar tarkibidagi kontrast unsurlar **struktur-semantik** xususiyatlari nuqtayi nazardan tasniflanganda ularning 2 xil shakli mavjudligi ko'zga tashlanadi: - yasama so'zlar orqali (*Quando si è patito s'inclina a compatire*; - turli o'zakli so'zlar orqali (*Amore fa amore, e crudeltà fa tirannia*).

Antonimik korrelyatsiyali paremiyalar tadqiqida til sathlariaro xususiyatlarning inobatga olinishi nafaqat tilning turli sathlariga xos kontrastiv jihatlar, balki ma'lum bir til sistemasi sathlari doirasidagi kontrar mezonlar verballashuvini tasvirlash, qolaversa, ularning *kommunikativ, pragmatik, kognitiv, struktur-grammatik, leksik-semantik* va *fonetik* aktualizatorlari tizimini keng tadqiq etishga yordam beradi.

Ikkinchi bobning uchinchi bo'limi "*Maqollarda aks etgan ijtimoiy va lingvosemantik xususiyatlar*" deb nomlanib, italyanacha AKMlarning ijtimoiy hamda lisoniy negizlari ularning 5 xil obyekt zamirida jipslashishini izohlaydi. Ya'ni, maqollar dastavval, inson omili orqali uning ongida paydo bo'ladi va u tilga ko'chadi. Biroq, ungacha insoniyat faoliyati davomida jamiyat va madaniyat shakllangan bo'lishi lozim. Demak, shunday xulosa qilish mumkinki, yuqorida tilga olingan 5 xil obyekt - *società* (jamiyat), *cultura* (madaniyat), *uomo* (inson), *mente* (ong) va *lingua* (til) obyektlarining ketma-ket uzviylikdagi o'zaro munosabatlari "kontrast paremiologiya"da yaxlit bir butunlikni tashkil etadi.

Maqollar tarkibidagi "*fare*" fe'li harakatni bildiruvchi barcha fe'llar bilan bog'lana oladi. Ushbu fe'lining turli ma'noli so'z guruhlarini yarata olishi uning aynan paremiologik birliklarni hosil qilishdagi turg'un ma'nolar ko'lamidan dalolat beradi. Bu haqda D.Kiselyov ham fransuz tilidagi *faire* fe'lining semantik jihatdan o'ziga xosligi va har qanday harakatni ifodalash qobiliyati hatto, uning anaforik shakllari orqali ham ifodalanishini qayd etadi<sup>19</sup>. Masalan: *facciami ben, facciami mal, in cent'anni saremo egual; fai il bene e scordalo, fai il male e ricordalo; fammi povera, ti farò ricco*.

Majhullikni bildiruvchi "*si*" (*si passivante*) ishtirokidagi fe'ning shaxssiz shakli ham italyanacha AKMlarning asosiy grammatik vositalaridan biri sanaladi. Uning maqollardagi asosiy maqsadi maqol mazmunini majhul nisbatda namoyon etish hamda vosita olmoshi o'rniga harakat natijalari va ta'sirini ta'kidlashdir.

<sup>19</sup> Киселёв Д.А. Анафорический потенциал глагола французского языка faire // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Лингвистика. 2017. №5. – С. 144. / – С. 141-149. DOI: 10.18384/2310-712X-2017-5-141-149<https://cyberleninka.ru/article/n/anaforicheskiy-potentsial-glagola-frantsuz>

Shunday ekan, maqollardagi harakat shaxsining yashirin holati aynan “*si*” (*si passivante*) orqali amalga oshadi. Masalan: *Si raccoglie quel che si semina; Si predica bene e si raccolla (o si raspa) male; Si crede più il male del bene.*

AKMlarda asosan istak-xohish (*Congiuntivo*) maylining hozirgi zamon shakli ishlatilib, u quyidagi kommunikativ maqsadlarni ifodalab keladi: **Buyruq** - *Se parla ben non è inteso, se parla mal è vien ripreso*; **Nasihahat** - *Scherza coi fanti ma lascia stare i santi*; **Iltimos** - *Bisognerebbe essere prima vecchi e poi giovani*; **Istak** - *Se il giovane sapesse, e se il vecchio potesse, è non c'è cosa che non si facesse*; **Taassurot** - *Chi sempre beve non ha mai troppa sete.*

Maqollar tarkibida artikllarning qo'llanilishi ham o'ziga xos semantik ahamiyat kasb etgan holda maqollar mazmunidagi korrelyatsiyaning xususiy va umumiy jihatlarini aniqlashga yordam beradi. Masalan, aniq artiklning ishlatilishi maqol mazmunini yorqin tasavvur qilishga yordam beradi va maqolni yanada tushunarli qiladi: *Il lupo ha sempre la lupa*. Noaniq artikllar esa aksincha, korrelyatsiyali antonimlar mazmunini ancha umumiyashtiradi: *Una piccola catena muove un gran peso; Un buon giorno vale un cattivo mese.*

Maqollar tarkibidagi grammatik xususiyatlarning o'ziga xosligi maqollar mazmunida yashiringan mantiqiy ma'noni ifodalashga xizmat qiladi. Italyancha AKMlardagi tarbiyaviylik, ifodalilik va tasviriylik kabi jihatlar maqollarning aynan shu grammatik aspektlari orqali namoyon bo'ladi va ularga xos hikmatli mazmuni to'liq tushunish imkonini beradi.

Bobning to'rtinchi bo'limi “*Kategorial antonimli paremiyalarning milliy-madaniy xususiyatlari*” deb nomlanib, italyan xalqining ma'naviy qadriyatlarini, o'ziga xos milliy jihatlarini, dunyoqarashi va tarixiy o'zligini aks ettirgan maqollar tahlilga tortilgan. Italyan xalqining e'tiborli qadriyatlaridan biri bu - *vaqt qadri* tushunchasidir, ya'ni kun davomida vaqtni to'g'ri taqsimlash va unga bo'lgan munosabat kabi ijtimoiy va tabiiy omillar ham italyan premyalari mazmunidan o'rin olgan. Masalan, *La mattina è la madre dei mestieri, e la notte dei pensieri – Tong – hunarmanchilikning (mehnatning), tun esa fikr-mulohazaning onasidir* yoki boshqacha qilib aytganda, *Kun bo'yi mehnat qilib, tun bo'yi fikr qil* mazmunidagi maqolda ham italyanlarning vaqtni qadrlash, ayniqsa ertalabki vaqt qadri tushunchalari aks etgan.

Maqollardagi milliy koloritni ta'minlovchi yana bir aspekt bu o'sha xalq oziq-ovqat mahsulolarining zid ma'noli vaqt tushunchalari orqali ifodalanishidir. Masalan, *A buona ora in pescheria, tardi in beccheria – Ertalab baliqxonaga, kechga qassobxonaga* maqolida italyanlarga xos rejali xarid, ya'ni yangi va sifatli go'sht yoki baliq mahsulotlarini xarid qilishdagi to'g'ri tanlovga guvoh bo'lish mumkin. Ushbu to'g'ri tanlov shu xalqning azaliy qadriyatlaridan biri sanaladi. Negaki, Italiyada qassobxonalarda hayvonlar azal-azaldan kechga yaqin so'yilgan va aynan kechda sotilgan go'sht yangi mahsulot sifatida xarid qilingan. Baliq esa asosan, erta tongda ovlaniishi an'anaga aylangan. Shuning uchun ham baliq sotib olish uchun ertalab bozorga borish maqsadga muvofiq bo'lgan.

Yuqorida ko'rib o'tilgan milliy kolorit ramzlaridan tashqari, quyidagi AKMlar ham italyan paremiologiyasiga xos milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettirishi aniqlandi:

## Antonimik binar komponentlar

№	Antonimik binar komponentlar:	№	Antonimik binar komponentlar:	№	Antonimik binar komponentlar:
1	<i>Donna-Uomo</i>	17	<i>Padre-madre</i>	33	<i>Vecchio- Nuovo</i>
2	<i>Vita-Morte</i>	18	<i>Venire-Andare</i>	34	<i>Padrone- Servitore</i>
3	<i>Buono-Cattivo</i>	19	<i>Caldo-freddo</i>	35	<i>Inverno-Estate</i>
4	<i>Moglie- Marito</i>	20	<i>Gallina-gallo</i>	36	<i>Bello-Brutto</i>
5	<i>Giovane-Vecchio</i>	21	<i>Figlia-Figlio</i>	37	<i>Uno-mille</i>
6	<i>Più-meno</i>	22	<i>Dolce-amaro</i>	38	<i>Sempre-mai</i>
7	<i>Molto-poco</i>	23	<i>Sole-Luna</i>	39	<i>Lupo-pecore</i>
8	<i>Amore-Odio</i>	24	<i>Cielo-Terra</i>	40	<i>Piangere- Ridere</i>
9	<i>Povero- Ricco</i>	25	<i>Presto-tardi</i>	41	<i>Prendere- Rendere</i>
10	<i>Grande-Piccolo</i>	26	<i>Nero-bianco</i>	42	<i>Chiudere- Aprire</i>
11	<i>Guerra-Pace</i>	27	<i>Grosso-sottile</i>	43	<i>Domandare- Rispondere</i>
12	<i>Oggi-domani</i>	28	<i>Santo-fanto</i>	44	<i>Grazie-disgrazie</i>
13	<i>Dio-diavolo</i>	29	<i>Gatto-topo</i>	45	<i>Comprare- Vendere</i>
14	<i>Amico-Nemico</i>	30	<i>Largo-stretto</i>	46	<i>Cercare-trovare</i>
15	<i>Fame- Sazietà</i>	31	<i>Riso-Lacrime</i>	47	<i>Raccogliere- Seminare</i>
16	<i>Savio- Pazzo</i>	32	<i>Angelo-diavolo</i>	48	<i>Speranza-disperato</i>

Ushbu ko‘rib o‘tilgan milliy-madaniy komponentlar italyan xalqining o‘ziga xos madaniyati, tarixi, an‘ana va urf odatlaridan kelib chiqqan milliy kolorit asoslari bilan bog‘liq bo‘lib, ularning har birini italyan paremiyalari misolida o‘rganish esa alohida tadqiqotni talab etadi.

Dissertatsiyaning 3-bobi “**Italyan maqollarida asosiy antonimik oppozitsiyalar : gender, axloq va hayot tushunchalari talqini**” deb nomlanib, 3 bo‘limni o‘z ichiga oladi. Birinchi bo‘lim “*Uomo (erkak) va Donna (ayol) komponentli maqollarda genderli etnomadaniy stereotiplar talqini*” nomi ostida italyan paremiologiyasiga xos gender tafovutli stereotiplar tahlil qilingan. Gender - bu erkak va ayollarning shaxsiy, xulq-atvor xususiyatlari haqidagi umumiy g‘oyalar to‘plamidir. Bu xususiyatlar alohida olib qaralsa ular ayollik (feminizm) va erkaklik (maskulizm) biomaqomini belgilaydi. Biroq zamonaviy tadqiqotchilar nazdida gender tushunchasi ma‘lum bir xalq milliyligi va madaniyati bilan bog‘liq o‘z-o‘zini identifikatsiyalash jarayoni, ya‘ni har bir individ muayyan madaniyatda amal qiluvchi erkaklarga xos yoki ayollarga xos xususiyatlar sohibi ekanligiga alohida e‘tibor berib kelinmoqda. Masalan, ingliz, o‘zbek, rus va boshqa tillar paremiyalarining qiyosiy tadqiqi bu boradagi munozarali masalalar yechimiga sabab bo‘la oladi<sup>20</sup>. Vaholanki, tadqiqot materiali sifatida tanlab olingan italyanacha AKMlarda ham *donna (ayol)-uomo (erkak), marito (er)-moglie (xotin) va figlia (qiz)-figlio (o‘g‘il)* korrelyatsiyali antonimlar juftligining ustunligi ham fikrimiz isbotidir. Biroq shuni ta‘kidlash joizki, *gender paremiologiya* sohasida amalga oshirilgan tadqiqot ishlari orasida aynan italyan tili misolida olib borilgan izlanishlar o‘zlarining sanoqli ekanligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi.

<sup>20</sup> Насруллаева Н. Инглиз ва ўзбек тилларида оламнинг фразеологик манзарасида гендер концептларининг шаклланиши: Филол.фан.докт. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2018. – 71 б.

Italyanacha AKMlarda gender konseptidagi maqollar ko‘plab uchraydi hamda ular **ijobiy** va **salbiy** ma‘nodagi stereotiplarni aks ettiradi. Shulardan ijobiy ma‘no guruhi “*donna-ayol*” va “*uomo - erkak*” antonimik korrelyatsiyali leksik tarkibi italyan gender paremiologiyasining asosiy omili sifatida xizmat qiladi. Bunday stereotiplar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1) maftunkor ayol - *Non v'è giovane che non sia bella, né vecchia che non sia brutta*; 2) bardoshli ayol - *Femmina piange da un occhio e dall'altro ride*; 3) vafoli ayol - *La gallina che sta nel pollaio, è segno che vuol bene al gallo*; 4) ona timsolidagi ayol - *Chi dà una giovane per moglie a un vecchio, gli dà la culla per dote*; 5) qadami qutlug‘ qiz farzand - *In casa de' galantuomini nasce prima la femmina e poi gli uomini*.

Italyan paremiologiyasida ayol obrazi o‘zining ham ijobiy, ham salbiy stereotiplari bilan ajralib turadi. Faqat ulardagi ijobiy stereotiplar italyanacha AKMlarda yakka tartibda namoyon bo‘lsa, salbiy stereotiplar esa biri-birini inkor etuvchi ijobiy va salbiy stereotiplar juftligida (korrelyatsiyali tarzda) aks etadi. Xususan, *dono va nodon ayol, mehribon va berahm ayol, go‘zal va xunuk ayol, oilali va beva ayol, semiz va ozg‘in ayol* kabilar shular jumlasidandir.

Italyanacha AKMlar orasida *ayol* va *erkak* obrazining bir-biriga qiyoslanishi orqali hosil bo‘lgan maqollarda quyidagicha stereotiplar namoyon bo‘ladi:

3-jadval

### Italyanacha AKMlarning gender xususiyatlari

Erkakga xos stereotiplar:	Ayolga xos stereotiplar:	Erkakga xos stereotiplar:	Ayolga xos stereotiplar:
<i>ta'minotchi</i>	<i>sarflovchi</i>	<i>kamgap erkak</i>	<i>sergap ayol</i>
<i>yaratuvchi</i>	<i>yo‘q qiluvchi</i>	<i>qo‘pol erkak</i>	<i>muloyim ayol</i>
<i>kekxa chol</i>	<i>yosh qiz</i>	<i>sodda erkak</i>	<i>makkora ayol</i>
<i>qo‘pol erkak</i>	<i>xushbichim ayol</i>	<i>qo‘rqoq erkak</i>	<i>baqiroq ayol</i>
<i>ayol sifat erkak</i>	<i>erkak sifat ayol</i>	<i>qobil erkak</i>	<i>janjalkash ayol</i>

Paremiologiyani bunday gender rakurslari nuqtayi nazaridan tadqiq qilish turli madaniyatlar va tillarda ayollar haqidagi qaysi stereotiplar, g‘oyalar saqlanib qolayotganini, vaqt o‘tishi bilan esa qaysi maqollar o‘zgarib borayotganini kuzatish imkonini oshiradi.

Bobning ikkinchi bo‘limi “*Bene (yaxshilik) va Male (yomonlik) komponentli maqollarda kontrast paremiologik obrazlar ifodasi*”ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda italyanacha AKMlarga xos lingvokognitiv xususiyatlar tahlil qilingan. Biroq ularning kognitiv xususiyatlaridan oldin ayrim pragmatik jihatlari ham e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq. Italyanacha AKMlarning “*il bene*” va “*il male*” komponentli turlari mazmun va paremiologik maqsadiga ko‘ra o‘ziga xosligi diqqatni jalb qiladi. Professor Sh.Safarov ta‘kidlaganidek, kommunikativ maqsad, ya‘ni intenziviyani botiniy (yashirin) holda yoki bilvosita ifoda etish barcha millatlarga xosdir<sup>21</sup>. Shu o‘rinda italyanacha AKMlarda ham mavjud kommunikativ maqsadning ikki xil intensional shaklda namoyon bo‘lishi ko‘zga tashlanadi, ya‘ni maqollar mazmunan *hikmatli fikr* va *buyruq* yoki *undash*<sup>22</sup> maqsadida aytilgan nutqiy aktlar shakliga mos keladi:

<sup>21</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 265. / – 320 б. www.ziyouz.com kutubxonasi

<sup>22</sup> Сувонова Н. Коммуникативно-прагматические особенности императивных паремий (на материале

## Italyanacha AKMlarda mavjud kommunikativ maqsadlar

Hikmatli fikr mazmunidagi maqollar:	Buyruq yoki undash mazmunidagi maqollar:
L'amore è principio del bene e del male.	Non fare il male ch'è peccato, non fare il bene ch'è spreco.
Proteste e serviziali non fan né bene né male.	Fate del bene al villano, dirà che gli fate del male.
Non c'è male senza bene.	Fai il bene e scordalo, fai il male e ricordalo.

Xususan, keltirilgan nutqiy intenziyalar oppozitsiya yordamida inson xulq-atvori va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni aks ettira oladi. Bunday ijtimoiy tamoyillar esa italyanacha AKMlar ichki sistemasida o'ziga xos qarama-qarshi korrelyatsiyali paremiologik obrazlar gavdalanishiga olib keladi. Ushbu obrazlar *bene* va *male* (*yaxshilik* va *yomonlik*) komponentli paremiyalarning *salbiy* va *ijobiy* qahramonlari sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, italyan tilidagi *bontà* (*ezgulik*), *cattiveria* (*yovuzlik*), *il bene* (*yaxshilik*), *il male* (*yomonlik*), *malcontento* (*norozilik*), *obbedienza* (*itoatkorlik*), *peccato* (*gunoh*), *spreco* (*isrof*) kabi leksemalar paremiyalarda aks etgan italyan etnomadaniyatiga xos kontrast obrazlarning aynan fazilatli va illatli xarakterlarini ochib berishga xizmat qiladi. Biroq bir paremiya tarkibida nafaqat bu kabi korrelyatsiyali kontrast obrazlar, balki, *yaxshilik* yoki *yomonlik* timsolidagi ma'lum bir obrazning o'zi yakka tarzda ham ifodalangan o'rinlar mavjud. Ushbu holatni hamda ularga xos aksessuar vositalarni esa quyidagi jadval orqali izohlash mumkin:

## Italyanacha AKMlar tarkibidagi kontrast obrazlar

№	Italyanacha AKMlar:	Zid tushunchalar:	Aksessuar leksemalar:
<b>Salbiy paremiologik obrazlar:</b>			
1.	Non far mai bene, non avrai mai male	befarq	il bene, il male
2.	Facendo male, sperando bene, il tempo va e la morte viene.	noinsof	tempo
3.	Chi non può benedire, non può maledire.	no'noq	benedizione, maledizione
4.	Si crede più il male del bene	ig'vogar	credenza
5.	Non sa che cosa sia il male, chi non ha provato il bene.	loqayd	il bene, il male
6.	Fate del bene al villano, dirà che gli fate del male.	ichi qora	villano
<b>Ijobiy paremiologik obrazlar:</b>			
7.	La buona cura scaccia la mala ventura	ezgu niyatli	cura
8.	Un buon giorno vale un cattivo mese	ko'ngli ochiq	giorno, mese
9.	Fai il bene e scordalo, fai il male e ricordalo	kamtar	scordare, ricordare
10.	Piglia il bene quando viene, ed il male quando conviene	oqil	il bene, il male


Paremiyalar tarkibidagi korrelyatsiyalashgan antonimlarning bevosita kategorial (*Bene-Male, Buono-Cattivo*) tarzda qo'llanilganligining ustuvorligi seziladi. Biroq, ayrim hollarda kontekstual tarzda, ya'ni antonim tushunchalarga xos *parodoksal* holatlar ham mavjudligini ta'kidlash lozim.

Bobning uchinchi bo'limi "*Vita (hayot) va Morte (o'lim) antinomlarining ijtimoiy-falsafiy ifodasi*" deb nomlanadi. Unda *Vita* va *morte* komponentli AKMLar kognitiv-semantik jihatdan tahlili qilingan. Bunday AKMLar hayot va o'lim, jismoniy va ruhiy mavjudlik, tabiat va insoniyatning o'zaro bog'liqligi haqidagi qadriyatlarni aks ettiradi. *Vita e morte (hayot va o'lim)* tushunchalari italyan tilida ko'pincha quyidagi antonimik juftliklar orqali ifodalanadi: *Vita-Morte (Hayot-O'lim) / Speranza-Disperazione (Umid-Umidsezlik) / Luce-Buio (Yorug'lik-Qorong'ilik) / Attività-Passività (Faollik – Harakatsizlik)*. Bu kabi ijtimoiy-falsafiy qarashlar italyan AKMLar semantik mazmun-mohiyatining kulminatsion nuqtasini tashkil etadi va ularni kognitiv-semantik nuqtayi nazardan umumiy ma'noda "*educazione della vita*" (*hayot saboqlari*) sifatida talqin qilish mumkin. Masalan, quyidagi paremiyalar hayotning ayni haqiqati va undan olingan hayotiy tajriba asosida shakllangan "*hayotiy saboqlar*" namunasidir: *Non s'impara mai a vivere sino alla morte. - Hatto hayotimizning oxirigacha ham yashashni o'rgana olmaymiz. È meglio viver piccolo che morir grande. - Obro'-e'tibor bilan o'lgandan ko'ra, kamtar bo'lib yashagan afzal. È meglio morir con onore, che viver con vergogna. - Sharmandalik bilan yashagandan ko'ra, sharaf bilan o'lgan yaxshi.*

Italyan AKMLar tahlili yana shuni isbotladiki, maqollar mazmunida hayot va o'limga alohida ta'rif berilgan bo'lib, bu orqali ularning ijtimoiy-falsafiy tavsiflari ko'lamini yanada kengaytirish hamda bu ikki xil real haqiqatning bir-biriga qarama-qarshi kategoriyalar ekanligini isbotlash mezonlari yanada oydinlashadi. Masalan, italyan xalqining *vita e morte (hayot va o'lim)* xususidagi etnomadaniy qarashlari italyan paremiologiyasida ularga xos quyidagi ijtimoiy-falsafiy tavsiflar mavjudligini isbotlaydi: *Chi nasce, convien che muoia - O'lim - Allohning irodasi; La morte ci ha a trovar vivi – O'lim kutilmagan mehmon; Tra la vita e la morte il passo è breve - Hayot va o'lim orasi bir qadam; La vita e la morte sono in mano di Dio - Hayot ham, o'lim ham - Allohning irodasi va hokazo.*

Italyan AKMLarda hayotning 3 bosqichli jarayonini ko'rish mumkin, xususan, *inizio, meta e fine della vita (hayotning boshi, o'rtasi va oxiri)*. Boshqacha qilib aytganda, hayotning boshi – *nascere (tug'ilmoq)*, o'rtasi – *vivere (yashamoq)* va oxiri – *morire (o'lmoq)*dir. Bu yerda hayotning boshi va oxiri vaqt davomiyligi jihatdan eng qisqa – lahzalik jarayon bo'lsa, ularning oralig'i – *yashash* ularga nisbatan eng uzoq jarayonni o'z ichiga oladi. Biroq italyan AKMLar orasida bunday vaziyatga nisbatan parodoksal fikrga duch kelamiz, ya'ni *hayot va o'lim oralig'i bir qadam* mazmunidagi *Tra la vita e la morte il passo è breve* maqoli kishilarning yashash faoliyati juda qisqa jarayon ekanligini isbotlaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, italyan xalqi *hayotning boshi*, ya'ni *nascità (tug'ilish)* holatini doimo *morte (o'lim)* bilan birga tasavvur etadi. Demak, *non c'è vita, senza morte (hayot borki, o'lim muqarrar)* mazmuni italyan

paremiologiyasi semantikasidan chuqur o‘rin olgan g‘oyalardan biri sanaladi. Hayotning o‘rtasi, ya‘ni *vivere* (*yashash*) jarayoni esa *hayot* va *o‘lim* bilan birga aks etadi. Yuqoridagi fikr-mulohazalarni aniqroq tasavvur qilish uchun quyidagi tasvirga murojaat qilaylik va unda hayotning 3 bosqichi italyan paremiologiyasida qanday statistik tasvirdan iborat ekanligini kuzatish mumkin:



Agar ushbu tahlil qilingan maqollarni tematik-janr xususiyatlariga ko‘ra ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ularni quyidagi uchta asosiy guruhga ajratishimiz mumkin:

**1. Falsafiy mazmundagi maqollar:** Bu maqollarda mazmun hayot va o‘limning mohiyati, o‘zaro bog‘liqligi va hayotiy tajriba nuqtayi nazari namoyon bo‘ladi. Masalan: *Chi nasce, convien che muoia*. - *Tug‘ilish-o‘lim muqarrarligidan dalolat. Il primo passo che ci conduce alla vita, ci conduce alla morte*. - *Hayot sari qo‘yilgan ilk qadam - o‘lim tomon tashlangan ilk qadam*. **2. Diniy va axloqiy mazmundagi maqollar.** Bu guruhdagi maqollarda *hayot* va *o‘lim* faqat Xudoga bog‘liqligi axloqiy yoki ma‘naviy me‘yorlar bilan baholanadi. Masalan: *Chi nasce, convien che muoia - O‘lim - Allohning irodasi*; *Chi bazzica co‘ preti e intorno ha il medico, vive sempre ammalato e muore eretico* - *Doimo yoningda ruhoniy va tabib olib yursang ham baribir kasal bo‘lib yashaysan va kofir bo‘lib o‘lasan*. **3. Ijtimoiy mazmundagi maqollar.** Bu turdagi maqollar hayot va o‘limni jamiyatdagi tafovutlar, paradokslar yoki kinoya bilan yoritadi. Masalan: *Chi vive in corte, muore in paglia* - *Shohona yashagan ham oxirida oddiy (faqirona) o‘lim topadi*; *È meglio viver piccolo che morir grande* - *Obro‘-e‘tibor bilan o‘lgandan ko‘ra, kamtar bo‘lib yashagan afzal*.

Ushbu maqollarni lingvistik jihatdan ko‘rib chiqqanimizda esa, ularda quyidagilar diqqatimizni tortdi: **Antonim leksik biriklar (qarama-qarshi tushunchalar)ning qo‘llanilishi.** Bu maqollar hayot va o‘limni oppozitsiya (qarama-qarshi juftlik) orqali ifodalaydi: *vita ↔ morte* (*hayot ↔ o‘lim*) / *onor(e) ↔ vergogna* (*obro‘ ↔ uyat*) / *speranza ↔ disperazione* (*umid ↔ umidsizlik*) / *piccolo ↔ grande* (*kichkina ↔ katta*); **Metafora va metaforik ifodalarning ishlatilishi.** *Hayot* va *o‘lim* bevosita hodisa emas, ko‘pincha ular metaforik tasvirlar orqali ifodalanadi. Masalan: *“Il primo passo alla vita... alla morte”* - hayot va o‘lim yo‘l tarzida ko‘rsatilgan; *“La morte ci ha a trovar vivi”* - o‘lim mehmon sifatida tasvirlangan; *“Il core è il primo che vive e l’ultimo che muore”* - yurak hayotning markazi sifatida metaforaga aylangan; **Sintaktik parallelizmning mavjudligi.** Tahlil davomida ko‘rib chiqilgan qator maqollar parallel yoki ritmik strukturaga ega bo‘lib, ular semantik oppozitsiyani kuchaytiradi: *Chi nasce, convien che muoia*; *Chi muor giace, e chi vive si dà pace*. Bu turdagi

konstruktsiyalar musiqiylikni hosil qiladi, xotirada yaxshi saqlanadi va hikmatli ma'no kasb etadi; **Ironiya va satira orqali mazmunning sayqallanishi**. Tahlil qilingan ayrim maqollarda kinoya orqali real hayotdagi paradokslar ko'rsatiladi: "*Meglio un asino vivo che un dottore morto*" - *Ahmoq tirik, aqlli o'lik* - kinoya orqali aytilgan haqiqat. "*Chi bazzica co' preti...*" - ruhoniylar va tabiblar haqida tanqidiy ohang mavjud; **Frazeologik birliklarning qo'llanilishi**. Maqol ichida mavjud iboralar aksi ham diqqatni tortadi. Masalan: "*dà pace*" - *tinchlik topmoq*; "*morir con onore*" - *sharaf bilan o'lmoq*; "*viver con vergogna*" - *sharmandalikda yashamoq*. Bu kabi ifodalar ko'p yillik xalq og'zaki nutqidan shakllangan iboralar sanaladi.

Italyan maqollarida *vita-morte* (*hayot-o'lim*) komponentli antonimik korrelyatsiyali leksemalar chuqur ma'no kasb etadi. Bu maqollar hayot va o'limni faqat antonim emas, balki bir-birini to'ldiruvchi, falsafiy va ekzistensial tushunchalar sifatida tasvirlaydi. Ularda *hayot* - yashash faoliyati, yashashdan maqsad, va unda qadriyatlarining muhimligi, *o'lim* - hayotning yakuni emas, balki uning ma'nosini belgilovchi oxirgi yakuni sifatida ko'rsatiladi.

## UMUMIY XULOSALAR

1. Tilshunoslarning "antonimiya hodisasi"ga nisbatan mantiqiy-semantik hamda sof semantik jihatdan yondashuvlariga oid qarashlar tahlili ularning **mantiqiy va semantik mezonlarini** o'zaro farqlash imkoni mavjudligini isbotlaydi. Antonimlarning **mantiqiy mezonlari** tarkibi asosan inkor kategoriyasi, qarama-qarshi tomonlar mavjudligi, belgilar zidligi, qarama-qarshi xarakterli ma'nolar, binar oppozitsiya, graduallik, assimetrik qarama-qarshi ma'nolar, bir-birini taqozo qiladigan ikki xil obyektlar, ikki qarama-qarshi tomonning mavjudligi, bir-birisiz mavjud bo'lmashlik mezonlaridan tashkil topsa, **semantik mezonlari** tarkibi esa qarama-qarshi tushuncha va ma'nolar, semantik umumiylik, belgilarga xos differentsiallik, antonimik korrelyativlik, so'z turkumlari bir xilligi, umumsemantik maydon, semantik nomuvofiqlik, struktur differentsiallik, leksik-semantik jihatdan zid munosabatlar kabi aniq mezonlarni o'z ichiga oladi.

2. Lisoniy antonimiya hodisasining asosini tashkil etuvchi qarama-qarshilik (oppozitsiya) kategoriyasi keng qamrovli tushuncha sifatida bir-birini taqozo qiladigan ikki xil obyektidan iborat lisoniy hodisa bo'lib, uning hosilasi tilshunoslikda mavjud antonimiya hodisasining semantik asosini tashkil etadi. Shu sababli antonimiya bir vaqtning o'zida bir-birini inkor etuvchi va biri-birisiz mavjud bo'lmaydigan leksik - semantik kategoriya sanaladi.

3. Lisoniy korrelyatsiya hodisasini, nafaqat bog'liqlik, balki oppozitsiya, statistika, muvofiqlik va tafovvut (differentsiallik) tamoyillari orqali ham namoyon bo'ladigan "lisoniy fenomen" sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Bu esa uni lingvistik birliklarni tadqiq etishga xos tahlil metodlaridan biri, korrelyatsion metod sifatida qo'llanishini asoslashga yordam beradi.

4. Tilshunoslikda ziddiyatga asoslangan har qanday tushuncha va ma'nolar kontrast rakursi orqali kuzatilsa, ular o'rtasidagi differentsiallik yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu sababli ziddiyat va muvozanat kategoriyalari italyan

paremiologiyasidagi antonimiya va korrelyatsiya hodisalarini mantiqiy-semantik jihatdan isbotlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Antonimik korrelyatsiyali maqollarni til sathlariaro, kognitiv, paradigmatik va struktur-semantik xususiyatlariga ko'ra tahlil qilish paremiologik kontrast hodisasining tasnifiy mezonlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Xususan, tilning fonetik sathida parafonli antonimlar, leksik sathda turli xil assotsiativ qarama-qarshiliklar, semantik sathda mazmuniy jihatdan nomuvofiq bo'lgan va kombinatsiyalashgan konversiv antonimlar, grammatik sathda grammatik oppozitsiyali shakllar mavjudligi kontrast paremiologiya orqali aks etadi.

6. Paremiyalarga xos 1) hayotiy haqiqatlarni ifodalash, 2) ma'lum bir jamoa tajribasini aks ettirish, 3) mazmunan tarbiyaviy ahamiyat kasb etish, 4) ma'lum bir maqsadga yo'naltirilganlik, 5) hamma uchun birdek tushunarli mazmun kasb etish, 6) "maslahat" yoki "nasihat" xarakteriga ega bo'lish kabi ijtimoiy xususiyatlar maqollarni ijtimoiy hodisa yoki ijtimoiy fenomen ekanligini isbotlovchi dalillardir. Binobarin, maqollarga xos bunday lingvosemantik xususiyatlar jamiyat, madaniyat, inson, ong va til kabi 5 xil ijtimoiy negizlarning ketma-ket uzviy munosabatlari yordamida yaxlit bir butunlikni tashkil etadi.

7. Italyanacha AKMLar o'zlarining gender xususiyatlariga ko'ra donna e uomo (ayol va erkak), marito va moglie (er va xotin), figlio e figlia (o'g'il va qiz), padre e madre (ota va ona), vecchio e vecchia (chol va kampir) kabi leksik birliklari juftligidan iborat bo'lib, androsentrizm g'oyalari nisbatan ginosenentrizm g'oyalarining ustunligi bilan ajralib turadi.

8. Italyan maqollarida ayollarga nisbatan turli xil qarashlar ifodalangan bo'lib, ularning ayrimlari ayollarni idealizatsiya qilsa, ba'zilari ularning xulq-atvori yoki fe'l-atvorini tanqidiy baholaydi. Aksariyat maqollarda ayol obraziga nisbatan ham ijobiy, ham salbiy stereotipik qarashlar o'z aksini topgan. Maqollarning asosiy mazmuni italyan madaniyatiga xos etnomadaniy stereotiplarlardan ideal ayol obrazi sohibjamol haqiqiy uy bekasi, vafoli yor va mehribon turmush o'rtoq obrazlari orqali talqin etilsa, noideal ayol obrazi esa nodon, xunuk, makkora, uquvsiz ayol obrazlari orqali talqin qilinadi.

9. Italyanacha yaxshilik va yomonlik ma'nolarini ifodalovchi AKMLar tarkibida bene - male, buono - cattivo antonimlari kategorial antonimlar sifatida qo'llaniladi hamda ularda antonim tushunchalarga xos paradoksal holatlar ustuvor sanaladi. Bunday maqollarda yaxshilik va yomonlik timsoli sifatida ijobiy paremiologik obrazlardan ezgu niyatli, pok, samimiy, kamtar insonlar obrazi, salbiy paremiologik obrazlardan loqayd, insofsiz, no'noq, noshukr va ig'vogar kishilarning paremiologik obrazlari antonimik tarzda ifodalanadi.

10. Italyan paremiologiyasida hayot, taqdir, vaqt, ong va o'tkinchi davr kabi tushunchalarni falsafiy asosda ochib beradigan vita-morte komponentli antonimik korrelyatsiyali maqollar "hayot va o'lim"ni nafaqat antonim, balki bir-birini taqozo qiluvchi va to'ldiruvchi falsafiy va ekzistensial tushunchalar sifatida tasvirlaydi. Italyan paremiologiyasining bunday maqollarida hayot (vita) - o'tkinchi, o'lim (morte) esa - taqdiri azal sifatida talqin qilinishining asosiy semantik vositalari vita ↔ morte, onor(e) ↔ vergogna, speranza ↔ disperazione, piccolo ↔ grande kabi leksik-semantik aksessuarlarni o'z ichiga oladi.

11. Italyan paremiologiyasida xalqining hayot va o'lim borasidagi etnomadaniy dunyoqarashlari nascita (tug'ilish)-vivere (yashash)-morte (o'lish) uchburchagiga asoslangan bo'lib, ularning italyan paremiologiyasidagi statistik holati: nascita -4%, vivere – 46 % va morte-54 % dan iborat ekanligini ko'rsatadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ  
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САДЫКОВА БАХОРА МАХМУРОВНА**

**СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АНТОНИМИЧЕСКИ  
КОРРЕЛИРОВАННЫХ ПОСЛОВИЦ В ИТАЛЬЯНСКОЙ  
ПАРЕМИОЛОГИИ**

**10.00.04 – Языки и литература народов Европы, Америки и Австралии**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Самарканд – 2026**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.3.PhD/Fil 3784.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz)) и Информационнообразовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** Сувонова Нигорабону Низомиддиновна  
кандидат филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Шамахмудова Азиза Фуркатовна  
доктор филологических наук, профессор  
Жураева Малохат Мухаммадова  
доктор филологических наук, профессор

**Ведущая организация:** Узбекский государственный университет  
мировых языков

Защита диссертации состоится «3» апреля 2026 года в 12<sup>00</sup> на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 233-78-43; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: [info@samdchti.uz](mailto:info@samdchti.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером № 62858). Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 233-78-43.

Автореферат диссертации разослан «19» марта 2026 года.  
Протокол реестра рассылки за № 18 от «19» марта 2026 года.



**Н.З. Насруллаева**  
Председатель научного совета по  
присуждению учёных степеней, доктор  
филологических наук (DSc), профессор

**У.У. Кулдошов**  
Учёный секретарь научного совета по  
присуждению учёных степеней, доктор  
филологических наук (PhD), доцент

**Д.А. Киселёв**  
Председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению ученых  
степеней, доктор филологических наук  
(DSc), профессор

*Handwritten signature in blue ink.*

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировой лингвистике всё большее внимание уделяется изучению языковых явлений на основе контрастных принципов. Этот процесс создаёт основу для интенсивного развития оппозитивного подхода в таких областях, как лексикология, фразеология и паремиология. Исследование языковых единиц с точки зрения противоположных понятий и оппозитивных концептосфер считается одним из приоритетных направлений современной лингвистики. Семантика паремиологических единиц, содержащая в себе сложное лингвофилософское и лингвокогнитивное содержание, открывает широкие научные возможности для анализа на основе контрастных принципов. Паремиология романских языков, в частности итальянского, до настоящего времени изучена недостаточно, поэтому исследования в данном направлении сохраняют свою актуальность.

В мировой лингвистике усиливается внимание к исследованию паремиологии в гармоничном единстве с лингвокогнитологией, лингвопсихологией, лингвофилософией и лингвокультурологией. Такой интегративный подход способствует разработке множества когнитивных механизмов, связанных с языковым сознанием и мышлением, а также расширению круга оппозитивных принципов в паремиологии и формированию «контрастной паремиологии».

С этой точки зрения в итальянской паремиологии остаются недостаточно изученные аспекты. Несмотря на широкий охват лексикографических работ по паремиям в мировой и итальянской лингвистике, их монографическое и глубокое научно-методическое исследование пока недостаточно развито. Это свидетельствует о наличии широких научных возможностей и актуальных задач для молодых исследователей в данном направлении.

В узбекской лингвистике изучение паремиологических единиц на основе оппозитивных принципов является актуальным, поскольку этот процесс требует всестороннего исследования противоположных механизмов языковой системы - от нижнего уровня до высшего. Пословицы, как важный жанр народного устного творчества, «...помогают нам осознать единство происхождения человечества, его исторические корни, благородные идеалы, а также взаимное стремление различных народов и этнических групп к будущему»<sup>23</sup>. Развитие паремиологии, в свою очередь, требует от исследователя комплексного анализа языковых единиц - в диапазоне от фонетических критериев до дискурсивного уровня с учетом их контекстуального статуса.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных рядом нормативно-правовых актов, таких, как Указы Президента Республики Узбекистан № УП-5847 “Об

<sup>23</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи, 06.04.2019.// <https://president.uz/uz/2476>.

утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года” от 8 октября 2019 года, № УП-60 “О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы” от 28 января 2022 года, Постановления Президента Республики Узбекистан № ПП-3775 “О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах” от 5 июня 2018 года, № ПП-4884 “О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания” от 11 ноября 2020 года, № ПП-4963 “О мерах по поддержке научно-исследовательской деятельности и внедрению системы непрерывного профессионального развития в сфере народного образования” от 25 января 2021 года, № ПП-5117 “О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан” от 19 мая 2021 года, и другими нормативно-правовыми актами в этой области.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. “Формирование системы инновационных идей по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства и пути их реализации”.

**Степень изученности проблемы.** Исследование пословиц и поговорок собственно филологической точки зрения восходит к началу XIX века. В этот период были созданы многочисленные паремиографические источники, что способствовало определению языкового статуса пословиц и поговорок как фольклорного жанра, выявлению этнокультурных особенностей различных народов, а также анализу структурно-семантических характеристик пословиц. На сегодняшний день проблемы паремиологии в основном изучаются с лингвокогнитивной точки зрения, что делает их приоритетным направлением научно-теоретических исследований. Если обратить внимание на научные исследования в области антонимических, то есть противоположных понятий, в лингвосемантическом аспекте *паремиологии*, можно заметить, что перед исследователями все еще стоят нерешенные задачи. В данном контексте мы намерены рассмотреть научные исследования, проведенные в области *антонимической паремиологии*.

